ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2023



ISSN 2181-6833

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2023-yil, iyul)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	*Mavzu*	Bet
		DOLZARB MAVZU	
1.	***ТАЙЛАКОВА Шахноза Норбековна***	Мактаб ёшидаги болалар орасида жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликка мойил ўқувчиларни маънавий-ахлоқий тарбиялашда ижтимоий институтлар фаолияти интеграцияси	8
2.	***GANJIYEV Feruz Furqatovich***	O`smirlarda agressivlik va ijtimoiy psixologik moslashuvning nazariy- metodologik asoslari	13
		PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	
3.	***BAKAYEVA Rayxon Izatovna***	Funksional savodxonlikning asosiy komponentlarini shakllantirishda o’qituvchining roli	17
4.	***BEKCHANOV Xusinboy***	Talabalarning hayotiy muammolarni hal qilishdagi koping strategiyalari	23
5.	***EGAMQULOV Sherzod Anorboyevich***	Dars mashg‘ulotlarida o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda elektron ta’lim resurslarini qo‘llash texnologiyalari	27
6.	***ISLAMOVA Moxichexra Бекмурзаевна***	“Tanqidiy tafakkur” tushunchasi va uning zamonaviy talqini	33
7.	***KHASANOVA Gulsanam***	Modern ideas about organizational-management skills of master's students in social and cultural activities	38
8.	***ABDALOVA Sayyara Rustamovna***	O‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish, loyihalash va modellashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning dolzarbligi	42
9.	***MAJIDOV Jasur Baxtiyarovich***	Professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarning shakllanishiga nizoli vaziyatlarning ta’siri	46
10.	***OTAQULOVA Durdona Rahmonovna***	Oliy ta’lim muasassalari talabalarini veb sahifalar yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishda interaktiv ta’lim platformalaridan foydalanish	56
11.	***OZODOVA Madina Hamza qizi***	O‘quvchilarning muloqot madaniyatida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasining o’rni	61
12.	***RAXIMOVA Indira Igorevna, AXMEDOVA Mavludaxon Isroiljonovna***	O’quvchilarda ijtimoiy faollikning psixologik xususiyatlari	65
13.	***SHAYDULLAYEVA Kamola Shapulatovna***	Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tafakkurni rivojlantirish muammosining o‘rganilganlik darajasi	69
14.	***SOYIBNAZAROV Abbosjon Ikromjonovich***	O‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va iq larini rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari	75
15.	***ЖЎРАЕВА Соҳибжамол Норқобиловна***	Замонавий педагог имижида ижтимоий муносабатларнинг ўрни	79
16.	***ИМОМОВ Мусурмон Пирназарович***	Компетенциявий ёндашув асосида ўқувчиларнинг касбий маданиятини ривожлантиришнинг устувор тамойиллари	86

O‘QUV JARAYONINI ZAMONAVIY TASHKIL ETISH, LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI

Abdalova S.R.
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Ushbu maqolada o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish, loyihalash va modellashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, o‘quvchilarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash, o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, uning samarali mezonlarini aniqlash kabilar so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: *qobiliyat, iqtidor, intellektual, salohiyat, uzluksiz ta’lim, fanlar bloki, o‘quv predmeti, tamoyillar, DTS, o‘quv reja, o‘quv dastur, shakl, metod, vosita, texnologiya, diagnostika kabilar.*

ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ СОВРЕМЕННОЙ ОРГАНИЗАЦИИ, ПРОЕКТИРОВАНИЯ И МОДЕЛИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

В данной статье говорится о современной организации образовательного процесса, совершенствовании механизмов проектирования и моделирования, поднятии работы в этом направлении на новый уровень, воспитании учащихся с интеллектуальным потенциалом, организации и реализации образовательного процесса, определении критериев его эффективности.

Ключевые слова: *способности, талант, интеллектуальный, потенциал, непрерывное образование, блок предметов, учебный предмет, принципы, ДТС, учебная программа, учебная программа, форма, метод, инструмент, технология, диагностика.*

THE URGENTIFICANCE OF IMPROVING MODERN ORGANIZATION, DESIGN AND MODELING MECHANISMS OF THE EDUCATIONAL PROCESS

This article talks about the modern organization of the educational process, improvement of design and modeling mechanisms, raising the work in this regard to a new level, educating students with intellectual potential, organizing and implementing the educational process, and determining its effective criteria.

Keywords: *ability, talent, intellectual, potential, continuous education, block of subjects, educational subject, principles, DTS, curriculum, curriculum, form, method, tool, technology, diagnostics, etc.*

Bugungi kunda respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, yoshlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib yetishini ta’minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi uch yil davomida mazkur tizimni isloh qilishga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator qaror va farmonlari qabul qilindi.

Ularni hayotga izchil tatbiq etilishi natijasida ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Bu hujjatlar respublikamizta’lim tizimini rivojlantirishning shakl va mazmunini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Ularda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxs-komil insonni voyaga yetkazishga, shu tariqa yangicha tafakkurga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanishiga, mamalakatimizning qadr qimmatini anglaydigan, hayotda aniq maqsadda bo‘lgan insonlarni tarbiyalashgaxizmat qiladi.

Prezidentimiz qaror va farmonlari ta’lim muassasalarini modernizatsiyalash, ularni zamonaviy o‘quv va laboratoriya jihozlari bilan ta’minlash, o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda o‘qitish shakllarini joriy etishga yo‘naltirilgan samarali ishlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, o‘quv jarayoni sifatini yangi bosqichga ko‘tarishga, ta’lim oluvchilarning kasb-hunar darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq o‘qitishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida bilimli ta’lim oluvchilarni tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko‘zda tutgani bilan ahamiyatlidir. Ularda belgilangan qator vazifalarning ta’lim muassasapedagoglari tomonidan o‘z vaqtida bajarilishi kelajakda albatta ta’lim sifati va samaradorligini oshishiga, bilimli ta’lim oluvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Bu hujjatlar respublikamiz ta’lim muassasalarida ta’limni rivojlantirishning shakl va mazmunini takomillashtirish zaruriyatini taqozo etadi. Ularda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi barkamol shaxs-komil insonni voyaga yetkazishga, shu tariqa yangicha tafakkurga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanishiga, mamalakatimizning qadr qimmatini anglaydigan, hayotda aniq maqsadda bo‘lgan insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ularda bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishga, ta’lim muassasalari pedagoglarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamonaviy talablarga muvofiq muntazam qayta tayyorlashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish asosida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yuksaltirishni ko‘zda tutgani bilan ahamiyatlidir.

Shunga ko‘ra ta’lim mazmunini qayta ko‘rib chiqib, zamon va istiqbol talablariga uyg‘unlashtirish (modernizatsiyalash) zururiyati kelib chiqadi. Ta’lim-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash deganda – mazkur jarayonning asosiy komponentlari:

- maqsad (uzluksiz ta’lim, ta’lim bosqichi, yo‘nalish, fanlar bloki, o‘quv predmeti, mavzuning);
- mazmun (tamoyillar, DTS, o‘quv reja, o‘quv dastur, materiallar);
- shakl (sharoit);
- metod va vosita (texnologiyalar, jihozlar);
- nazorat (natija, diagnostika, testlar) kabilarni zamonaviylash-tirish, bugungi kun uchun samarali bo‘lgan yangi ko‘rinishlarini ishlab chiqish tushuniladi.

Jumladan, yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etgan holdata’lim muassasalarining pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv rejalari, dastur hamda uslublarini tubdan yangilashga oid chora-tadbirlar o‘z ifodasini topdi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarda pedagoglarning zamon bilan hamnafas bo‘lishlariga, o‘quv jarayoniga fanlar bo‘yicha innovatsiyalar, shuningdek, ilg‘or uslublarni keng joriy etishga zarur shart-sharoit yaratadi, shu bilan birga, kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishini talab etadi. Pedagog o‘quv jarayonida quyidagi vazifalarn bajarishi kerak (1-jadval):

1-jadval

O‘quv jarayonida pedagogning vazifalari

№	Nomi	Vazifasi
1.	Tashkilotchi	Mustaqil hayotga tayyorlaydi.
2.	Metodist	Muammoni yechishda yordam beradi.
3.	Tadqiqotchi	O‘z ustida ishlaydi, yangi g‘oyalar yaratadi, tatbiq etadi.
4.	Psixolog	Ta’lim oluvchini yaxshi biladi va tushunadi.
5.	Moderator	Ta’lim mazmunini yaratadi, modullarini ishlab chiqadi.
6.	Trener	Ko‘nikmani rivojlantiruvchi mashqlar o‘tkazadi.
7.	T’yutor	Masofaviy o‘qitishni amalga oshiradi.
8.	Mentor	Ustoz, o‘rgatuvchi.
9.	Kouch	Repetitor, instruktor, trener.
10.	Lektor	Nazariy ma’lumotlar beradi.
11.	Ekspert	Kuzatadi, tekshiradi, tahlil qiladi, xulosa qiladi, tavsiyaberadi.
12.	Innovator	Yangiliklarni o‘quv jarayoniga joriy etadi.
13.	Assistent	Ta’lim oluvchilarga yordam ko‘rsatadi.
14.	Texnolog	Pedagogik texnologiyalar asosidadasturishlab chiqadi va amalga oshiradi.
15.	Fasilitator	Ta’lim oluvchilarning samarali hamkorligini shakllantiradi.
16.	Menejer	O‘quv jarayoni strategiyasini ishlab chiqadi.
17.	Maslahatchi	Mavhum o‘rinlarni aniqlashtirishda yordam ko‘rsatadi.

Bugun voyaga yetayotgan yoshlarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalash, ularga puxta bilim berish ularning yuksak bilim darajasiga bevosita bog‘liq. Bu sa’y-harakatlar, albatta, bugungi kunda malakali mutaxassislarni yetishtirib berish, umumiy o‘rta ta’lim tizimini tom ma’noda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi muhim omilga aylantirish, qolaversa, kadrlar tayyorlash tizimining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.Shu o‘rinda barcha sohalarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal kirib borayotganini qayd etish joiz. Mazkur hujjatda ham pedagoglarining global internet tarmog‘i, multimedia tizimlari va masofadan o‘qitish usullaridan foydalangan holdazamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalni egariallashi va ularni o‘quv jarayoniga faol tatbiq etishi zarurligi ko‘zda tutildi. Shubhasiz, bu mamlakatimiz ta’lim tizimi rivojini yanada yuqori bosqichga ko‘tarishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda o‘qitish mazmuni va o‘quv jarayonida samarali islohotlarni amalga oshirish, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar o‘qitish mazmunida bir xilda ifodalanishi taqozo qilinmoqda.Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ko‘pincha o‘quv jarayonidars materiallarini tayyorlashda ta’lim oluvchining imkoniyat, ehtiyojva tajribalari to‘liq hisobga olinmay kelingan. Bunday yondashuv natijasida o‘qitiladigan fanlarining mazmuni bir buncha murakkablashib, ortiqcha keraksiz materiallar ham kiritilgan. Bu o‘z navbatida ta’lim oluvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasining pasayishiga olib kelgan.

Shu bilan bir qatorda o‘qitiladigan fan mavzularida ta’lim oluvchilarni bugungi kunda tab etilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish vazifalariga kam e’tibor qaratilgan. Darsliklarda turmushga oid, hayotiy, qiziqarli misol va masalalar, ishlab chiqarishga oid asosiy tushunchalarni ifodalovchi masalalar deyarli berilmagan. Darslikda ayrim mavzular ta’lim oluvchining yoshiga nisbatan murakkab berilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muassasa darsliklari bilimlar konveyeriga aylanib qolgan bo‘lib, ta’lim oluvchi egallagan bilimlarini amalda sinab ko‘rishi, o‘z tasavvurini erkin va mustaqil ifodalashi, tasavvurlaridagi kashfiyotlarni loyihalashva modellashtirishga intilishi, evristik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun o‘quv jarayonida ba’zi bir imkoniyatlar, ko‘pincha zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratilmagan.

Bilimlarni o‘qitish mazmunining boshqa komponentlari bilan uyg‘unlashtirishga erishish natijasidagina ushbu yuqoridagi muammolarni bartaraf etishga hamda o‘quv jarayonida ta’lim oluvchining mustaqil faoliyat yuritishiga erishish mumkin. Shuning uchun ham o‘qitish mazmunini belgilashda birinchi navbatda, uning tarkibi va hajmini pedagogik-psixologik jihatdan asoslashga alohida e’tiborni qaratish lozim.

O‘quv jarayonini tashkil etish, loyihalash va modellashtirishdan foydalanib uzviylikni ta’minlash, ta’lim oluvchilarda o‘quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Dars jarayonida ta’lim oluvchilar mustaqil ishlashi uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Buning uchun tanalab olinadigan o‘quv materialining mazmuni ta’lim oluvchining mantiqiy va tanqidiy fikrlashiga yordam berishi lozim. Shu bilan bir qatorda, bilimlar uzviyligini caqlab qolgan holda o‘quvmaterialini takomillashtirib borish ham talab etiladi. Bunda, avvalambor, konsentrizm prinsipiga tayangan holda o‘quv materiallarini izchil tizimga solish maqsadga muvofiqir.

O‘quv materialining bayoni ta’lim oluvchilar o‘rganganlarini shunchaki takrorlash imkonini bermasligi, balki ularga tanish bo‘lgan faoliyat turlari, masalan, topshiriqlar, turli mashqlar va matematik amallarni bajarish muntazam kengayib borishi uchun imkoniyat hamda yangicha sharoit yaratilishi yaratilishi talab etiladi. Bunday sharoitda ta’lim oluvchilar o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalardan amaliy faoliyatlarida foydalanadilar, topshiriq va mashqlarni aniq, to‘g‘ri bajarish usullari va texnikalarini mukammal o‘zlashtiradilar.

Pedagog bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilishi lozim bo‘lgan amaliy mashq usullaridan eng muhimi - bu yozma bahs usulidnr. Bunday usulda muloqot o‘rnatish natijasida ta’lim oluvchining mustaqil fikrlash imkoniyati kengayadi, yozma nutqi rivojlanadi, og‘zaki muloqot jarayonida bayon qila olmagan fikrlarini bemalol yozma shaklda biddirishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar, bugungi kunda ta’lim oluvchilarining yozma nutqi ayanchli ahvolda ekanligini ko‘rsatadi. Ular o‘z fikrlarini hamma vaqt ham mantiqiy izchillikda bayon qila olmaydilar. Bu bosqichda ular o‘z fikrlarini yozma tarzda bayon qila olishlari hamda ushbu matnlarda ilmning u yoki bu sohasiga aloqador turli nuqtai nazarlar bayon etilishi lozim. Pedagog bilan ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini vujudga keltirish, ta’lim oluvchilarning shaxsiy vazifalarini imkon qadar hal qilish uchun o‘quv maydonini kengaytirish, o‘quv motivlarini takomillashtirish talab etiladi.

Ta’lim oluvchilar o‘quv jarayonida qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozimligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim jarayonining muhim bosqichi sifatida mazkur bosqichda o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirish, uning samarali mezonlarini aniqlash o‘quv jarayonini tashkil etishning muhim shartidir. O‘quv jarayonining turli modellarini aniqlash yoki yaratish, bu jarayonni tashkil etishmazmuni, metodlari, shakllarini aniqlash, unga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish, ushbu tavsiyalardan foydalanib tashkil etilgan o‘quv jarayoni bilan amaldagi o‘quv jarayoni natijalarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish talab etiladi. Bunday tahlil natijasida ta’lim oluvchilarda shakllangan o‘quv-bilish kompetensiyalarining uzviyligi va uzluksizligi yaqqol ko‘rinadi.

Uzoq yillar davomida ta’lim jarayonini demokratik tamoyillar asosida tashkil etish, insonparvarlashtirish sohasida harakatlar olib borilgan bo‘lsa-da, bu tamoyillar ta’lim muasssasalarida amalga oshirilgan o‘quv ishlarida o‘z ifodasini topmadi, har doim sinfda pedagog hokim vazifasini bajarib keldi, natijada ta’lim oluvchi jur’atsiz bo‘lib qoldi.

O‘qitish mazmuni bo‘yicha ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Turlicha o‘zlashtirish, qiziqish va iqtidor darajasiga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilar uchun bir xildagi o‘quv predmetlari aynan bir xil, aksariyat hollarda reproduktiv xarakterdagi dars materiallari taqdim etilmoqda. Bu tarzda tashkil etilgan o‘quv jarayoni ta’lim oluvchining mustaqil fikrlashi, o‘z qobiliyatlarini namoyon etishi uchun imkon bermaydi. Ishlab chiqarishning muayyan sohalari, ilm-fan tarmoqlariga qiziqtirish va yo‘naltirish imkoniyatlari cheklangandir.

O‘quv jarayoni to‘laqonli tarzda ta’lim oluvchiga yo‘naltirilsa, uning ehtiyoj va imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidorini hisobga olgan holda muayyan tamoyillar asosida tashkil etilsa, bunday o‘quv natijalari, birinchi navbatda, ta’lim oluvchi shaxsining o‘zini, shu bilan bir qatorda fan va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi omil darajasiga ko‘tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tartur Yu.G. Proektirovanie obrazovatelnogo protsessa v vuze: Ucheb. Posobie. - M.: Issledovatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spesialistov, 2005. - 97s.

2. Kolesnikova, I. A., i dr. Pedagogicheskoe proektirovanie:. Ucheb; posobie dlya vыssh. ucheb. zavedeniy Tekst./ I. A. Kolesnikova, M. P. Gorchakova-Sibirskaya; Pod red. I. A. Kolesnikovoy. -M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2005. 288 s.

3. Krotkova, I. N. Proektirovanie obrazovatelnogo protsessa kak sredstvo integratsii professionalno-pedagogicheskix znaniy budущixuchiteley: avtoreferat dissertatsii . kand. pedagogicheskix naukTekst. / Krotkova I. N. Yaroslavl, 2005. - 22 s.

4. Monaxov V.M. Metodologiya proektirovaniya pedagogicheskoy texnologii (aksiomaticheskiy podxod) // Shkolnыe texnologii,- 2000.- №3.- S. 67.

5. Monaxova G.A. Teoriya i praktika proektirovaniya uchebnogo protsessa kak vedущego komponenta v professionalnoy deyatelnosti uchitelya: Dis. doktora pedagogicheskix nauk. Volgograd, 2000. - 349s.

6. Vvedenskiy, V.N. Modelirovanie professionalnoy kompetentnosti pedagoga Tekst./ V. N. Vvedenskiy // Pedagogika. 2003. -№10.-S. 51-55.

7. Daxin, A.N. Pedagogicheskoe modelirovanie: suщnost, effektivnost i . neopredelennost Tekst. / A. N. Daxin // Pedagogika.2003.-№4.-S23-26.

8. Klarin,.M. V. Texnologicheskie modeli obucheniya Tekst./ M. V. Klarin // Shkolnыe texnologii. 2003. - №6. - S. 3 - 22.